

SUV TEJOVCHI TEXNOLAGIYALAR ORQALI SUV TAQCHILLIGINI OLDINI OLISH VA EKINLARNI ARALASH EKISH

Rashidov Quvonchbek Turg'unboy o'g'li

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Soloyeva Dinora Baxtiyor qizi

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Xusenova Shaxzoda O'ktamjon qizi

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada suv taqchilligi va uni oldini olishga qaratilgan tadbirlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ko'p hollarda ekinlarni aralash o'stirish oziqabop ekinlardan ko'k massa, pichan, senaj, silos va boshqa turdagi oziqalarni olish maqsadida o'stiriladi va bunda dukkakli hamda dukkagi bo'lmagan ekinlardan foydalanilsa oziqa tarkibiy jihatdan yaxshilanib, to'yimligiga tenglashgan holatda bo'lishga erishiladi.

Kalit so'zlar. Suv, resurstejamkor texnologiyalar, makkajo'xori, ko'k no'xat, aralash ekinlar.

Kirish. Ma'lumki, so'nggi bir asrdan ortiqroq o'tgan davrda jahon miqyosida iqlim ko'rsatkichlari o'rta hisob bilan 1 darajaga o'sganligi kuzatildiki, bunday hol o'z navbatida, mintaqa ekotizimlari sharoitida ham ob-havoning isishi, yog'in miqdorining kam bo'lishi va ayniqsa, suv zahiralarning kamayishiga ham olib kelmoqda.

Ehtimol bundan buyonhar bir mintaqadagi demografik holat va xalq xo'jaligining suv va suv zahiraloriga bo'lgan ehtiyojining ortishini nazarda tutsak tabiiyki, ushu muammoning hayotiy dolzarbligi masalasi yanada kuchayishi mumkin, albatta.

Boz ustiga, mamlakatimiz va jumladan Zarafshon vohasi viloyatlari misolida suvning asosiy manbalari transchegaraviy daryo hamda boshqa shu kabi manbalar hisobiga bo'lishi shuningdek, daryo suvlari hozirda 50-60% dan ko'prog'i bug'lanishini ham hisobga olsak suv muammosi naqadar dolzarb ekanligi yanada ravshanroq bo'ladiki,

bularningsh barchasi shubhasiz, suv zahiralardan samarali foydalanish, ekinlarni o‘stirish jihatlarini yanada takomillashtirish hamda sohalar borasida zamonaviy, ixcham va resurstejamkor texnologiyalarni jori etishni taqozo qiladi.

Misol uchun bir necha ekinlarni bir dalaning o‘zida o‘stirib hosil olishda sug‘oriladigan yerdan maksimal darajada foydalanish bilan birga quyosh nuri, tuproq imkoniyatlari va nam miqdoridan samarali foydalanish evaziga mo‘l hosil olishga qaratilgan bo‘lishga qaramay afsuski, hozirda mazkur masala dehqonchiligimizda bir qadar etibordan chetdan qolib kelgan ko‘rinadi. To‘g‘ri, g‘o‘za-g‘alla majmuida ham oziqabop ekinlarga bir qator ahamiyat berilsa-da, biroq ularning salmog‘ini hali hanuz talab darajasida, deb bo‘lmaydi.

Ta’kidlash kerakki, ko‘p hollarda ekinlarni aralash o‘stirish oziqabop ekinlardan ko‘k massa, pichan, senaj, silos va boshqa turdagi oziqalarni olish maqsadida o‘stiriladi va bunda dukkakli hamda dukkagi bo‘lmagan ekinlardan foydalanilsa oziqa tarkibiy jihatdan yaxshilanib, to‘yimligiga tenglashgan holatda bo‘lishga erishiladi. Ilm-fan va ilg‘or tajribalar shuni tasdiqlaydiki, aralash ekinlar bir qator agrotexnik ahamiyatga ega bo‘lib, bunda begona o‘tlar tarqalishining oldi olinadi, oziq moddalarning bir maromda takomillashiga imkon yaratiladi, tuproqni eroziyadan saqlaydi, dalada zararli fito-va entomofaunalarning tarqalish oldini olinadi, tuproq unumdorligi oshradi, dalada mikroiklim yaratiladi va hokazo. Aralash ekilgan ekinlar ko‘p hollarda eng yaxshi o‘tmishdosh ham hisoblanadi.

Ular odatda asosiy, bahorgi, yozgi va g‘o‘za-g‘alla majmuida kuzgi hamda qishki guruhlardan iborat bo‘ladi. Shu maqsadda bahorgi aralash ekinlar 391 uchun vegetatsiya davri uzun bo‘lgan o‘simliklar tanlansa, o‘rib olinadigan va ang‘iz ekinlari uchun esa aksincha, vegetatsiya davri nisbatan qisqaroq, ammo har ikkala holatda ham yuqori, barqaror, sifatli hosil beraolishi ta’minlangan bo‘lishi lozim. Albatta, ularni muvaffoqiyatli va barcha agrotexnik talablar zanjiri asosida o‘stirish ko‘pgina omillar xususan, muayyan mintaqaning tuproq-iqlim sharoiti, tanlangan komponentlar, ularning nisbati, ekish muddati, usullari, o‘g‘itlash, nam bilan ta’minlash kabi omillarga bevosita bog‘liqdir. Shu o‘rinda navbatdagi muhim masala aralash ekinlarning o‘zaro munosabati ham o‘ta muhim hisoblanadi. Binobarin, aralash ekinlar tarkibidagi o‘shish va rivojlanish

darajasi, turlicha ildiz tizimi, morfologik va biologik xususiyatlari shuningdek, nav agrotexnologiyalari bilan bir-biridan u yoki bu darajada farq qiladi. Ko‘p hollarda aralash ekinlar oziqa yoki ba‘zan don olish maqsadida ham ekiladi. Shu maqsada masalan, ko‘p yillik ilm-fan va ilg‘or tajriba xulosalariga ko‘ra makkajo‘xorini ko‘k no‘xat, soya, dukkakli bo‘lmagan oraliq ekinlardan lerko, moyli turp yoki xashaki karam kabi vakillari bilan o‘stirish yaxshi natija beradi. Bundan tashqari makkajo‘xorini boshqa ekinlar, xususan, kungaboqar, sudan o‘ti yoki boshqalar bilan birga o‘stirish ham ayni muddao hisoblanadi. Bunda hech bo‘lmaganda 700-750 s/ga, ko‘k no‘xat bilan makkajo‘xori ekilganda esa 650-700 s/ga, makkajo‘xori, jo‘xori sof va aralash ekilganda esa qiyosan 600 va 550 s/ga hosil yetishtiriladi. Albatta, mazkur ekinlarni o‘stirishda ularning o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi. Avvalo, ularni yerni sifatli tayyorlab, obi-tobida ekish, so‘ngra esa ma‘dan o‘g‘itlar berish va sug‘orishni tavsiya etilgan me‘yorlar asosida o‘tkazish tavsiya etiladi. Bunda eng maqbul ekish me‘yori masalan, makkajo‘xorida keng qatorlab ekilsa 25-30 kg/ga, yoppasiga ekilganda esa 50-60 kg/ga, ko‘k no‘xatni esa 80-100 kg/ga ekish maqsadida muvofiq hisoblanadi. Bunda makkajo‘xorini ekish me‘yori oshirilsa ekinlar miqdori kamayadi, me‘yordan kam ekilganda esa hosildorligi past bo‘lishi kuzatiladi. Agarda makkajo‘xori kungaboqar bilan birga ekilsa u holda makkajo‘xorining ekish me‘yori 20-25 kg/ga, kungaboqarda esa bu ko‘rsatkich 8-12 kg/ga hisobida bo‘ladi. Shu bilan birga, amaliyotda makkajo‘xorini boshqa ekinlar xususan, sudan o‘ti bilan ekish ham mumkin va bunda dastlabki davrda makkajo‘xorida tez o‘sish kuzatilsa-da, biroq keyinchalik bu xususiyat sudan o‘tida yoqqol namoyon bo‘ladi. Shu narsa e‘tiborga molikki, birinchi o‘rinda aralash ekinlar salmog‘ida makkajo‘xorida 30-50%, bo‘lsa ikkinchi va uchinchida nisbati 6-10 va 2-3% ni tashkil etadi. Makkajo‘xoridan va sudan o‘ti aralashmasi uch o‘rimda 1000 s/ga, to‘rt o‘rimda esa 1200 s/ga ko‘k oziqa hosilini beradi. Shunday qilib, ko‘ramizki, aralash ekinlar nafaqat bahor-yoz faslida balki, yoz-kuz va qisholdi, erta bahor davrida ham, ya‘ni yil davomida 392 agrotsenoz mahsuldorligini oshirish va yil davomida bir necha biomassa hosili yetishtirish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Babushkin L.N., Kogay N.A., Zokirov Sh.S. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining agroiqlim sharoiti. Toshkent, «Mehnat», 1985, 160 b.
2. Gorelov Ye.P. Botirov X.F. O‘z imkoniyatlarimizdan foydalanaylik// O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi, 1992, 4-5 son, b. 24-25.
3. Massino I.V. O‘zbekistonning sug‘oriladigan oziqachiligida makkajo‘xori, jo‘xori va xashaki lavlagi seleksiyasi. Toshkent, «Fan», 1984, 160 b.
4. Mahsumov A.N. Sug‘oriladigan yerlardan yil bo‘yi foydalanish - paxtachilikda muhim muammo//